

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 54 354,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 5,9 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,7 % ga yetdi.

2024- yil uchun Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	46 999,2	54 354,1	105,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 030,6	53 505,2	105,9
mahsulotlarga sof soliqlar	968,6	848,9	106,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 030,6	53 505,2	105,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 166,8	20 911,5	103,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 288,0	10 180,2	108,8
sanoat	3 730,4	5 139,5	108,9
qurilish	4 557,6	5 040,7	108,8
xizmatlar	18 575,8	22 413,5	107,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 759,2	8 386,0	111,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 152,8	2 694,8	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	9 663,8	11 332,7	103,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 670,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	41,6	39,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,0	19,0
sanoat	8,1	9,6
qurilish	9,9	9,4
xizmatlar	40,4	41,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,7	15,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,7	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	21,0	21,2



2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 39,1 % ni, sanoat tarmog‘i 9,6 % ni, qurilish 9,4 % ni va xizmatlar sohasi 41,9 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilda – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilda – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilda – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2023- yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil uchun YAHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,2 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 39,1 %), sanoatda – 108,9 % (9,6 %), qurilishda – 108,8 % (9,4 %), xizmatlar sohasida – 107,4 % ni (41,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 111,7 % (15,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (21,2 %) iborat bo‘ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 126,5 % va xizmatlar sohasida – 112,3 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 41 609,9 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 35 623,3 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 77,8 % ni (2023- yilda – 77,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi *(jamiga nisbatan % da)*

Hajmi, mlrd so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

35 623,3

77,4 %

2024- yil

41 609,9

77,8 %

